

**TALABALARINI KASBIY O‘Z-O‘ZINI ANGLASHINING
IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

Djumanov Sherali Zakirovich

*O‘zMU Jizzax filiali, Oila psixologiyasi
kafedrasи katta o‘qituvchisi
sherali.zhumanov.83@bk.ru*

Nomozova Latofat Sodiq qizi

*O‘zMU Jizzax filiali, Yoshlar psixologiyasi
yo‘nalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarni kasbiy o‘z-o‘zini anglashining ijtimoiy psixologik xususiyatlari bo‘yicha bir qator tavsiyalar mazkur maqolada keltirib o’tilgan.

Maqoladan pedagogik jarayonida kasbiy o‘z-o‘zini anglashining tarkib toptirish bilan shug’ullanuvchilar foydalanish mumkin.

Kalit so’zlar: Komunikativ munosabatlar, shaxs, ijtimoiy qiziqishlar, emotsiyalar xususiyat, ta’lim oluvchilar, o‘z-o‘zini anglash sifati, muhit, o‘sirinlik davri.

Shaxsning ruhiy hayotidagi ong va o‘z-o‘zini anglash sifat jihatidan o‘ziga xos bo‘lsada, bir-biridan ajralmasdir. Bir butun sifatida ongni faqat tashqi dunyoga fazoviy mansubligini anglash asosida amalga oshirish mumkin. Agar ong bir butun sifatida obyektiv dunyoga qaratilgan bo‘lsa, o‘z-o‘zini anglash obyekti shaxsning subyektiv dunyosi hisoblanadi. O‘z-o‘zini anglash jarayonida shaxs ham bilishning subyekti, ham obyekti sifatida harakat qiladi. O‘z-o‘zini anglash bizda o‘zimizning o‘ziga xosligimiz, o‘ziga xosligimiz va o‘ziga xosligimiz tuyg‘usini yaratadi. Bu tuyg‘uni o‘tmishimiz xotirasi, bugun kechinmalarimiz, kelajakka umidlarimiz doimo qo‘llab-quvvatlaydi.

Xuddi shu boisdan ham L.S.Vigotskiyning shaxsiy fikricha, o‘zini o‘zi anglash turli xil ma’nolar o‘rtasida birlikni (umumiyligliki) vujudga keltirish jarayoni sifatida va o‘zlashtirilgan ong tariqasida namoyon bo’ladi. A.N.Leontev talqiniga qaraganda, individual (yakka shaxsga oid) ongdagi moshiyat bilan mazmun o‘rtasidagi ziddiyat o‘zini o‘zi anglashning sababchisidir. A.N.Leontevning shogirdi V,V.Stolining uqtirishicha, o‘zini o‘zi anglashning asosida (negizida) "menlik" ning mazmunlari o‘rtasidagi ziddiyat yotadi. B.G.Ananov izlanishlarida aks etishicha, o‘zini o‘zi anglashning paydo bo‘lishi omili - odamning individual xosiyati, faoliyat subyektliligi shaxslilik xususiyatlarining tarkib topishidagi notejislik va geteroxronlikdir. Uning mulohazasiga ko‘ra, o‘zini o‘zi anglash ana shu uchala xususiyatni o‘zaro muvofiqlashtiradi va xuddi shu tariqa ongning individualligini ta’minlab turadi.

O‘z-o‘zini anglash shaxsning o‘zining umumiy va individual rivojlanishi

jarayonida rivojlanadi. O‘z-o‘zini anglash asosiy bo‘g‘in sifatida harakat qila boshladi, inson faoliyatining barcha shakllarini tartibga solishda, uning rivojlanishi va o‘zini o‘zi rivojlantirishda ishtirok eta boshladi. Bu shaxsning psixik sifatlarini saqlash, uning rivojlanishining asosiy bosqichlari uzlusizligining zaruriy shartidir.

Shaxsning o‘z-o‘zini anglashi butun hayoti davomida amalga oshadigan jarayon bo‘lib, u kasbiy, ijtimoiyi, iqtisodiy, jinsiy jihtlari mavjud.

Jumladan, talabalar o‘quv jarayonida tanlagan kasbi ta’sirida o‘z-o‘zini anglash jarayoni amalga oshadi. O‘quv faoliyati talabalar uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki kasbiy sifatlaridagi ijobiy munosabat xususiyatlarini rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratishi kerak.

Ta’lim olish jarayonida talabalar kasbiy xususiyatlarini shakllanishi davom etadi. Talabalarning o‘qishdagi muvaffaqiyati uning keyingi psixik rivoji va shaxsining shakllanishida to‘liq ijobiy asos bo‘ladi. Buning natijasida Talabalarning o‘z-o‘zidan oilasi, va boshqa jamoalardagi o‘z o‘rnini anglay boshlaganini ko‘rish mumkin.

Unda ijobiy munosabat hissi o‘sa boshlaydi. U yaxshi muomala va xarakter shart ekanligini va u uning burchi ekanligini, belgilab qo‘yilgan qoida va talablar bajarilishi shartligini anglaydi. O‘zini haqiqiy mutaxassis sifatida his qilgan holda unda yaxshi talaba bo‘lishga ehtiyoj paydo bo‘ladi. O‘spirinlik davridagi kelajak tassavvurlari borasida muhim o‘zgarishlarga uchraydi va axloqiy sifatlar, bilim va tasavvurlar sezilarli darajada boyiydi va talaba o‘zini o‘zi anglay boshlaydi. U o‘zini “Men”ini his qiladi. O‘zining vazifasi, maqsadi, uni bajarish lozimligi, berilgan vazifalarni bajarish uning burchi ekanligi kabilarni anglab yetadi.

Talabalarni kasbiy o‘z-o‘zini anglashiga ijtimoiy qiziqishlari, emotsiyalari, jamoa uchun tashvishlanish kabi hislari aks etadi. Vatanga kerakli inson bo‘lish uchun o‘qishning muhimligi va ahamiyatini bilishi uchun ochiqlik, ishonuvchanlik, ustozining barcha topshiriqlarini bajarishga tayyorlik xususiyatlari keng ijtimoiy burch motivlari, ma’suliyatlilik samarali shartlar hisoblanadi. O‘qish jarayonining dastlabki yillarida qiziqishlar, xususan, bilim egallashga nisbatan qiziqishlar, intellektual qiziqishlar sezilarli darajada rivojlanadi. Bu qiziqishlarga oily ta’limning artibutlari sabab bo‘ladi.

Talabalardagi bunday qiziqishlar o‘zini anglash va o‘z xatti-harakatiga baho berishi kabi xususiyatlarni shakllantiradi.

Bu yoshidagi talabalarning kasbiy qiziqishlariga ta’lim beruvchilarning shaxsiy xususiyatlari, pedagogik mahorati va yutuqlari ta’sir etadi.

O‘z-o‘zini anglash shaxsning fazilatiga aylanishi uchun muayyan davr, vaqt, muddat talab qiladi, shuning uchun talabalarni kasbiy o‘z-o‘zini anglashida ta’lim jarayonida dasturiy tadbir-choralar o‘tkazish orqali ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin.

Yuqoridagi yondashuvlardan kelib chiqib quyidagi fikrni aytish mumkin. Pedagogik jarayonda ta’lim oluvchilarni kasbiy o‘z-o‘zini anglashida kommunikativ

qobiliyatlarni shallantirish muhim omil bo‘ladi:

- ✓ talabalar jamoasi bilan dastlabki suhbat jarayonini oqilona, puxta tashkil qilish;
- ✓ tashkiliy marosim va tadbirlardan (salomlashish, ta’lim oluvchilarni tartib bilan o‘tqazish, davomatni tekshirish va hokazo) rasmiy va shaxsiy muloqotga tezkor o‘tish;
- ✓ talabalar bilan ijtimoiy-psixologik hamkorlikka oson erishish muammolarini izlash;
- ✓ talabalar bilan o‘zaro hamkorlikning tashkiliy va sermazmun bo‘lishida har qanday salbiy to‘sqliarning paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- ✓ talabalar bilan o‘zaro munosabatda o‘zining shaxsiy insoniy fazilatlarini namoyon etish;
- ✓ talabalarga nisbatan bir qolipdagi va bir holatdagi salbiy munosabatlarni bartaraf qilish;
- ✓ talabalar jamoasi bilan yaxlit o‘zaro ijobiy munosabatni tashkil etish;
- ✓ ta’lim va tarbiya tizimida taqiqlangan pedagogik talablarni qo‘llamaslik;
- ✓ o‘qituvchi tashqi ko‘rinishi bilan kommunikativ munosabatni ta’minalashga erishishi;
- ✓ o‘zaro hamkorlikning nutqiy va noverbal vositalarini qo‘llash orqali munosabatga faol kirishish;
- ✓ talabalar jamoasiga o‘zining xayrixohligini, moyilligini, do’stligini namoyish etish;
- ✓ talabalar bilan muloqotda pedagogik faoliyatning yorqin va e’tiborni tortadigan maqsadlarini qo‘ya bilish va ularga erishish yo‘llarini ko‘rsatish;
- ✓ ta’lim oluvchilarning har xil vaziyatlarda ichki kayfiyatlarini, his-tuyg‘ularini tushunish, uni hisobga olish, hamjihatligini ko‘rsata bilish.[4]

Shuning bilan birga talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishda ta’lim beruvchi tomonidan amalga oshirilishi zarur bo‘lgan harakatlar orasida eng muhimi – talabalarni xususiyatlarini inobatga olgan holda muloqotga kirishishi, ularga topshiriqning bajarilishini doimiy nazorat qilish asosida ta’lim oluvchilarni rag‘batlantirib borish hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash mumkinki, tadqiqotimizda muomala odobida talabaning axloqiy ongi, axloqiy faoliyatining yetuklik darajasi, axloqiy ehtiyojlari va axloqiy yo‘nalishlari, so‘zi bilan faoliyati birlik darajasi kabilarda talabaning o‘zaro muloqotda faollik zamirida namoyon bo‘ladi. Xuddi shuningdek, o‘qituvchi va talaba muloqotida muomala odobi ham talablardagi kommunikativ qobiliyatlarni tarkib toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. T.: O‘qituvchi, 2010.
2. Safayev N.S., Mirashirova N.A., Odilova N.G. “Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti”:- T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.

3. Xaydarov F.I., Xalilova N. "Umumiy psixologiya". T.: "Fan va texnologiyalar" markazining bosmaxonasi : 2009.
4. Djumanov Sh.Z. Talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirish texnologiyalari // Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2022-yil 14-15-oktyabr. 522-bet.
5. Zakirovich, Djumanov Sherali. "TALABALARDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI." *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research* (2022): 543-545.
6. Джуманов, Ш., & Холикулова, С. (2022). Талабаларда коммуникатив қобилияtlарни шакллантириш имкониятлари. *Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы*, 1(1), 513-515.
7. Nigora, S., & Munisa, O. K. (2023). SHAXSLARARO MULOQOTDA UCHRAYDIGAN QIYINCHILIKLAR. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 327-330.
8. Nigora, S., Ilmira, Y., & Zulkumor, X. (2023). TORTINCHOQLIK VA UNING PSIXOLOGIK SABABLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 323-326.
9. Nigora, S., Go‘zal, Q., & Shoxista, Z. (2023). O‘SMIR QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA OILANING ROLI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 330-333.
10. Саматова, Н., & Намуратова, М. (2023). Psixologiyada shaxs muammosi. *Информатика и инженерные технологии*, 1(2), 408-413.
11. Саматова, Н., & Субхиддинов, С. (2023). Проблема образа «Я» и самооценки личности. *Информатика и инженерные технологии*, 1(1), 435-437.
12. Саматова, Н., & Абдурасулова, С. (2023). Психологическая связь и межличностный конфликт в педагогическом общении. *Информатика и инженерные технологии*, 1(1), 433-434.
13. Hakimova, S. (2023). Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ongiga ta'siri. *Zamonaviy psixologiya, pedagogikada fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi: muammolari va yechimlari*.
14. Davlataliyevna, S. N. (2022). Umumiy psixologoya va turli xil psixologik amaliyotlar. *Scientific Impulse*, 1(5), 820-822.
15. Davlataliyevna, S. N. (2022). Psychology and its principles. *Scientific Impulse*, 1(5), 823-826.
16. Davlatalevna, S. N. (2022). Oiladagi salbiy muloqotning farzand psixologiyasiga ta’siri.